

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

AVLIYAQULOV SUNNATULLA XOLMUROD O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INTIZOMIY JAZO CHORALARINI
QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Avliyaqulov Sunnatulla Xolmurod o‘g‘li

Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralarini qo‘llashning
tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish..... 3

Авлиякулов Суннатулла Холмурод угли

Совершенствование организационно-правовых основ применения
мер дисциплинарного взыскания в органах внутренних дел..... 26

Avliyaqulov Sunnatulla Kholmurod ugli

Improving the organizational and legal framework for implementing
disciplinary measures in internal affairs agencies 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.YU.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

AVLIYAQULOV SUNNATULLA XOLMUROD O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INTIZOMIY JAZO CHORALARINI
QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu717 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz/>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Djaxongir Xayitovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdiyarov Shuxrat Namozboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Sharipov Sanjar Sobirovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-avgust kuni soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD-1595-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil 9-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-avgustdagi 22-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda politsiya xodimlarining qonunga xilof xatti-harakatlarining oldini olish, xizmat intizomini mustahkamlash, kasbiy professionalligi hamda mas'uliyatini oshirish, shu orqali imiji va obro'sini yaxshilash, shuningdek ularga nisbatan aholining ishonchi ortishiga erishish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, ayrim mamlakatlarda politsiya xodimlariga berilayotgan keng vakolatlar va immunitetning aniq chegaralab qo'yilmaganligi, intizomsizlik, haddan tashqari kuch ishlatish, qonun talablariga rioya etmaslik kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Xususan, 2023-yil davomida AQShda politsiya xodimlari ustidan kelib tushgan shikoyatlarning 15 foizi asosli deb topilgan. Mazkur ko'rsatkich, Buyuk Britaniyada 12 foizni, Fransiyada 20 foizni, Rossiyada 17 foizni tashkil etgan¹. Bu esa, politsiya faoliyati ustidan samarali nazorat tizimini o'rnatish va qonunbuzish holatlariga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Amnesty International kabi xalqaro tashkilotlar ham bu yo'nalishdagi tizimli muammolarga e'tibor qaratib, politsiya faoliyatini ochiq, shaffof va mas'uliyatga asoslangan holda tashkil etishni tavsiya etmoqda.

Jahonda politsiya organlarida xizmatni o'tashni samarali tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan, g'ayriqonuniy va ortiqcha kuch ishlatish, zo'ravonlik, irqchilik, korrupsiya hamda mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish, tizimda intizomiy nazorat choralarini kuchaytirish, qonunchilik va xizmat intizomi buzilishining sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar, qoidabuzarliklarning omillarini bartaraf etish, shuningdek aholini samarali boshqarish hamda politsiya – aholi munosabatlarini barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatini inson huquqlari va xalqaro standartlar asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish, xodimlarni "Inson qadri uchun" prinsipi asosida o'z burchiga sodiq, vatanparvar hamda xalqparvar vakil etib tarbiyalash² borasida qator vazifalar belgilangan. Biroq, so'nggi yillarda xodimlar o'rtasida turli sabablarga ko'ra kasbiy madaniyat va xizmat intizomi qoidalarini buzish holatlari ortib bormoqda. Jumladan, so'nggi besh yilda (2020 – 2024-yy.) qo'llanilgan intizomiy jazolarning ko'rsatkichi 14,8 foizga oshgan. Shu bilan birga, intizomiy jazo choralarini qo'llashning aniq huquqiy mezonlari mavjud emasligi, jazo tayinlashning subyektiv omillarga bog'liq bo'lib qolayotganligi, bu jarayonda tanish-bilishchilik va korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilayotgani, jazo choralarini ijro etishda belgilangan muddatlarga amal qilinmasligi, xizmat tekshiruvini olib borish va jazo qo'llash to'g'risidagi hujjatlarni rasmiylashtirish borasida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani intizomiy jazo choralarining

¹ Amnesty report decries French laxity on police brutality <https://www.france24.com/en/20090402-amnesty-report-decries-french-laxity-police-brutality> - (murojaat qilingan vaqti: 05.05.2025).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori // <https://www.lex.uz/uz/docs/6364837> (murojaat vaqti: 05.05.2025).

samaradorligini oshirish hamda uning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2016), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3413-son “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017), PQ-3919-son “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2018), PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023), PQ-1-son “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2025) qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan intizomiy jazo qo‘llash asoslari va tartibi, intizomiy jazo choralarning mohiyati, shakllanishi hamda rivojlanishi tarixiga doir umumiy masalalar S.T. Axmedova, X.A. Axmedov, A.A. Axmedov, I.R. Bekov, Sh.N. Berdiyarov, A.E. Boymirzayev, S.N. Gordeyev, S.Dj. Djoldasova, I. Ismailov, V.G. Karimov, Y.D. Kutibayeva, B.A. Matlyubov, F.A. Muxitdinova, S.F. Nazirov, N.A. Nugmanov, A.X. Saidov, B.A. Saidov, S.M. Selimanova, L. Solovyova, I.T. Tulteev, A.S. Tursunov, M.M. Xakimjonov, A.A. Xudoyberdiyev, A.K. Yangibayev, Dj.X. Yuldashev, M.Z. Ziyodullayev, S.S. Sharipovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda politsiya xodimlariga beriladigan intizomiy jazolarni belgilash, jazo berish tizimining ilmiy-nazariy jihatlari, shakllanishi va rivojlanish tarixi, xizmat intizomi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari, intizomiy javobgarlikka tortish xususiyatlari, ishdan bo‘shatish tarzidagi intizomiy jazolarni qo‘llash muammolari, intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha ish yuritish bosqichlariga doir masalalar M.Y. Agrafonov, T.A. Batrova, V.S. Byalt, V.V. Gonchar, A.V. Kapranov, O.V. Korneyeva, N.S. Kulikova, A.A. Kuznesov, A.V. Lejenin, Y.L. Leshina, Y.P. Malsev, S.P. Matveyev, N.P. Mayurov, V.V. Nikitin, Y.A. Nikolaenko, O.V. Ovchinnikova, Y.A. Rogojkina, M.V. Skrinnikova, A.V. Smirnov, V.V. Strelsov, I.V. Tishenko, I.N. Vanyushina, Y.G. Chernova, Y.A. Shurupova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, politsiya xodimlariga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy jazolarning ilmiy-nazariy asoslari Y.A. Fedyayev, A.L. Franklin, C.J. Guffey,

M.M. Helms, P. Hyden, X. Molm, J.F. Pagan, T.C. Pitsis, A. Repev, J. Chelliax kabi xorijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan³.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash va ijrosini ta'minlash bilan bog'liq tashkiliy va huquqiy muammolar amaldagi normativ-huquqiy baza va huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va "Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusi (2022–2026) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar, taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston hududida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi tuzilmalar, shu jumladan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash asoslarining shakllanishi hamda rivojlanishi tarixini o'rganish;

ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash tushunchasi, tartibi va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llashning huquqiy asoslari tahlili asosida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berish;

ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash borasidagi muammolar va kamchiliklarni aniqlash orqali ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi takliflar ishlab chiqish;

ichki ishlar (politsiya) organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash va ijrosini tashkil etish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish;

ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash mexanizmlarini tizimli o'rganish hamda umumlashtirish asosida milliy huquqiy tizimga mos ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llanilishi bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar.

Tadqiqot predmetini ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llanilishini tartibga soluvchi qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilib, xodimning harakatida xizmat intizomi buzilishi alomatlari aniqlangan bo'lsa, intizomiy jazo chorasi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida

³Mazkur manba va boshqa adabiyotlar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

qaror qabul qilingan kundan boshlab, bir oy ichida qo'llanilishi mumkinligi asoslantirilgan;

tizimda xizmatni o'tash muhitini yaxshilash, xodimlarga nisbatan adolat va tenglik prinsiplarini ta'minlash maqsadida xodimni avvalgi maxsus unvoniga tiklamay hamda navbatdagi maxsus unvon berilmay turib, uni ikkinchi marta maxsus unvondan pasaytirishga yo'l qo'yilmasligini normativ-huquqiy hujjatlarda aniq mustahkamlab qo'yish lozimligi asoslantirilgan;

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining Kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan, amaldagi intizomiy jazosi mavjud xodimga kichik serjant maxsus unvoni lavozimga tayinlash va ozod etish vakolatiga ega bo'lgan boshliqlar tomonidan, ushbu intizomiy jazo chorasi bekor qilinganidan keyin berilishi mumkinligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarida kadrlar qo'nimsizligining oldini olish, malakali kadrlarni saqlab qolish, ularning xizmatga bo'lgan sadoqati va motivatsiyasini oshirish hamda tizim barqarorligini ta'minlash maqsadida amaldagi intizomiy jazosi mavjud bo'lgan xodimlarning ham xizmat muddati uzaytirilishi mumkinligini qonunchilik hujjatida belgilash zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“xizmat intizomini qo'pol ravishda buzish” va *“muntazam ravishda xizmat intizomini buzish”* tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi, ichki ishlar organlari xodimiga qo'llaniladigan intizomiy jazo tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek huquqiy tavsifi yoritib berilgan;

intizomiy jazo chorasining maqsadi, vazifalari, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek jazo tizimidagi o'rni asoslab berilgan;

“gauptvaxtada hibsdan ushlab turish” tarzidagi intizomiy jazo chorasining qo'llanilishi konstitutsiyaviy normalarga zid ravishda belgilanganligi sababli, ushbu jazoni intizomiy jazolar ro'yxatidan chiqarish lozimligi isbotlab berilgan;

ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi talablariga zid ravishda intizomiy jazo choralari qo'llagan rahbarlar ustidan elektron tarzda shikoyat qilish huquqining yaratilishi lozimligi asoslab berilgan;

sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatlar bo'yicha tayinlanadigan xizmat tekshiruvini amalga oshirish jarayonida aniqlanadigan javobgarlikni istisno qiladigan holatlarni belgilash zarurati asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash va ijrosini ta'minlashga doir munosabatlarni tartibga soluvchi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Prezident qarori loyihasi ishlab chiqilgan va dissertatsiyaga ilova qilingan (*dissertatsiya ishining 2-ilovasi*).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, qonunni qo'llash amaliyotining ijobiy tajribalari, sohaga doir besh yillik (2020-2024 yillar) empirik va statistik ma'lumotlar tahlili, sudning ishga tiklash bo'yicha 300 ta hal qiluv qarori, 150 ta xizmat tekshiruvi xulosasi, 800 nafar mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan bo'lib, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* undagi xulosa va tavsiyalardan intizomiy huquqbuzarliklar (nojo‘ya xatti-harakatlar)ni huquqiy baholash (malakalash)ga, shuningdek ichki ishlar organlarida qo‘llaniladigan intizomiy jazo choralarining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy hamda metodologik qarashlarni yanada rivojlantirishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ulardan ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralarining qo‘llanilishi va ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni hamda huquqiy amaliyotni takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralarini qo‘llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilib, xodimning harakatida xizmat intizomi buzilishi alomatlari aniqlangan bo‘lsa, intizomiy jazo chorasi jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab, bir oy ichida qo‘llanilishi mumkinligini qonunchilikda belgilashga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirining 2024-yil 30-iyuldagi 42qq/28-son qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaning 39-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 25-martdagi 27/2-52-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi intizomiy jazo qo‘llanilgan xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash darajasini yanada oshirishga xizmat qilgan;

xodimni avvalgi maxsus unvoniga tiklamay turib va unga navbatdagi maxsus unvon berilmasdan turib, uni ikkinchi marta maxsus unvondan pasaytirishga yo‘l qo‘yilmasligini normativ-huquqiy hujjatlarda aniq mustahkamlashga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta‘minlash faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 67-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 30-maydagi 2/1297-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi ichki ishlar organlari xodimiga intizomiy jazo choralarining qonuniy va asosli tarzda qo‘llanilishini ta‘minlashga xizmat qilgan;

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining Kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan, amaldagi intizomiy jazosi mavjud bo‘lgan xodimga kichik serjant maxsus unvoni, ushbu intizomiy jazo chorasi bekor qilinganidan keyin berilishi mumkinligini qonunchilikda belgilashga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta‘minlash faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 35-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 30-maydagi 2/1297-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi ichki ishlar organlarida qonuniylikni va xizmat intizomini ta‘minlashga xizmat qilgan;

amaldagi intizomiy jazosi mavjud bo‘lgan xodimlarning ham xizmat muddati uzaytirilishi mumkinligini qonunchilik hujjatida aniq belgilab qo‘yishga doir

taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi 75-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta’minlash faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 365-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 30-maydagi 2/1297-son dalolatnomasi*). Mazkur qoidaning kiritilishi ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash darajasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 2 ta xalqaro, 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta, ilmiy anjumanlarda 9 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Intizomiy jazo choralari qo‘llash asoslari va tartibi: ilmiy-nazariy tahlil”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda O‘zbekiston hududida jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi subyektlarda intizomiy jazo choralari qo‘llashga doir tartib va qoidalarining shakllanishi hamda rivojlanishi, mazkur talablarning bajarilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar va ularning vakolatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bobda ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo‘llash tushunchasi, tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekiston davlatchiligi tarixida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimlarida intizomiy jazo choralari qo‘llash asoslarining shakllanishi hamda rivojlanishi”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston hududida qadimdan hozirgi davrga qadar jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini amalga oshirgan, ichki ishlar organlarining vazifalari va vakolatlariga ega bo‘lgan tuzilmalar xodimlarining mas‘uliyat va javobgarligini belgilovchi tartib-qoidalarining shakllanishi va rivojlanishi atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, intizomiy jazo choralari qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

O‘tkazilgan retrospektiv tahlillar asosida O‘zbekiston hududida jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi subyektlar (xususan, ichki ishlar organlari)da intizomiy jazo choralari qo‘llanilishining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi shartli ravishda quyidagi yettita bosqichga ajratilgan:

birinchi bosqich – O‘rta Osiyo hududida arablar istilosigacha bo‘lgan davr (milodiy VII asr boshlariga qadar). Ushbu davrda ichki ishlar organlarining vazifa va vakolatlari “sipohbed”, “hazorpad” kabi nomlar bilan atalgan harbiylar (artishtar) tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularga nisbatan intizomiy jazo tariqasida qamchin bilan savalash, temir kamar bog‘lab yurishga majbur etish, olovda qizdirilgan temir qurollar bilan qiynash, eritilgan mis yoki qo‘rg‘oshin quyish choralari va o‘ta og‘ir qilmishlar uchun o‘lim jazosi qo‘llanilganligi manbalarda qayd etilgan;

ikkinchi bosqich – O‘rta Osiyoda arablar istilosidan Chingizxon bosqiniga bo‘lgan davr (VII asr boshlaridan XIII asr boshlariga qadar). Ushbu davrda islom jamiyati qaror topgan bo‘lib, unda Qur‘oni karim va shariat qoidalari amal qilgan. Shariat qoidalariga muvofiq jamoat tartibini buzganlik (hokimiyat vakiliga bo‘ysunmaslik, bezorilik, kissavurlik, mayda firibgarlik va h.k.) uchun ta‘zir deb nomlanuvchi jazo tayinlangan. Ta‘zir jazosi sud hukmiga binoan yoki hukmdor yoxud mirshablar boshlig‘i (muhtasib) qaroriga ko‘ra tayinlangan. Ta‘zir

– qamchi yoki kaltak bilan 5 tadan 39 tagacha darra urish, olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish hamda jarima solish jazosi hisoblangan. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatida mirshablik va jazolash vazifalarini *shixna* deb ataluvchi amaldor bajargan. Ushbu mansabga turk harbiy boshliqlari – amirlar tayinlangan. Ular hokimiyatga xavf tug‘diruvchi barcha ishlarga aralashishi mumkin bo‘lgan;

uchinchi bosqich – Chingizxon bosqini davridan Amir Temur saltanati barpo etilgunga qadar bo‘lgan davr (XIII asr boshlaridan XIV asr ikkinchi yarmiga qadar). Mazkur davrda Chingizxonning “Yaso (yasoq) qonunlari” mavjud bo‘lib, unda asosan harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Jumladan, agar turk-mo‘g‘ul urug‘laridan bo‘lgan kimdir Yaso qonunlarini har bir qilmish uchun quyidagi ketma-ketlikda intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan: so‘z bilan tanbeh berish, bilikka binoan jazoga tortish, bilikka ko‘ra uzoq (olis) Boljin-Suljur manziliga surgun qilish, oyog‘iga kunda urib, qorong‘i qamoqxonaga tashlash, taqdirini hal etish uchun yaqin va uzoq qarindoshlariga topshirish;

to‘rtinchi bosqich – Temuriylar davridan O‘rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingunga qadar bo‘lgan davr (XIV asr ikkinchi yarmidan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar). Temuriylar davrida politsiya mahkamasi “yasag‘liq” deb atalib, u davlat ichidagi tartib-intizomni saqlashga mas‘ul, jamoat tartibini buzgan kishilarni tekshirish, so‘roq qilish va jazolash vakolatlariga ega bo‘lgan. “Temur tuzuklari” jinoyat va jazo masalalarini hal etishda alohida o‘rin egallagan. Unga ko‘ra, sipohiylik (askarlar) ishlarida yalqovlik qilgan bo‘lsalar ishlaridan bo‘shatilib, yozish-chizish bilan shug‘ullanuvchilar orasidan ish berilgan. Agar shundan keyin ham xatolikka yo‘l qo‘ysalar, ikkinchi bor xizmatga olinmagan. Sipohiy qo‘l ostidagi kishiga zulm o‘tkazsa, xizmat doirasidan tashqari chiqqan sanalib, u jazo tariqasida o‘z jabrlanuvchilariga topshirilgan. Bu holda jabrlanuvchi sipohiyini xohlagancha jazolashi mumkin bo‘lgan. Basharti katta va mahalliy boshliqlar o‘z vakolatlari doirasidan chiqib, o‘zlaridan kichik darajadagi kishilarga zulm o‘tkazsalar, ularga mol-mulkiga qarab jarima solish nazarda tutilgan. Xonliklar davrida ushbu masalalar shariat qonunlari asosida hal etilgan. Shayxulislom, Dodxoh, Hudaychi, Muhtasib (Rais), Ko‘kaldosh kabi mansab egalari din va shariat qoidalariga rioya etilishi, bozorlardagi tosh-tarozining to‘g‘riligini, mamlakat miqyosidagi xavfsizlikni nazorat qilganlar. Shuningdek, qozilar (sud) tomonidan tayinlangan jazoni ijro etish ham ularning zimmasiga yuklangan;

beshinchi bosqich – Chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi hukmronligi davridan O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan davr (XIX asrning ikkinchi yarmidan 1991-yilgacha). Ushbu davrda 1918-yil qabul qilingan “Sovet ishchi-dehqon militsiya xizmatchilari uchun xizmat intizomi kodeksi” amal qilgan. Xizmat intizomi kodeksi militsiya xodimlariga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qat‘iy va so‘zsiz bajarish majburiyatini yuklagan. Kodeksga muvofiq, boshliq (rahbar) o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan quyidagi intizomiy choralarni qo‘llash vakolatiga ega bo‘lgan: hayfsan, navbatdan tashqari naryad, 10 sutkadan ortiq bo‘lmagan muddatga hibsga olish, quyi lavozimlarga o‘tkazish, xizmatdan bo‘shatish;

oltinchi bosqich – O‘zbekiston mustaqilligiga erishgan vaqtdan 2016-yilga qadar bo‘lgan davr (1991 – 2016-yillar). Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar idoralarida xizmat o‘tash tartibi haqidagi vaqtinchalik Nizom” asosida ichki ishlar organlari xodimlarining nojo‘ya xatti-

harakatlari uchun javobgarlik masalalari hal etilgan. Shu bilan birga, keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 27-martdagi “Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni asosida ushbu qaror qoidalari takomillashtirilgan;

yettinchi bosqich – Yangi O‘zbekiston davri (2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan hozirga qadar). Mazkur davr ichki ishlar organlari tarixida yangi davrni boshlab berdi. Unda ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalish va prinsiplari belgilab berildi. Mazkur qonun asosida qabul qilingan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash asoslari va tartibi, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi me‘yorlari, ularni buzganlik uchun qo‘llaniladigan ta’sir choralari hamda qo‘llash tartibi mustahkamlab qo‘yildi. Bir so‘z bilan aytganda, ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tashning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllandi.

Muallif tomonidan mazkur davrlashtirish B. Ahmedov, H.B. Boboyev, I. Jabborov, B.A. Matlyubov, Z. Muqimov, M.A. Rajabova kabi olimlar tomonidan olib borilgan ichki ishlar organlari (ular o‘rnida faoliyat yuritgan tuzilmalar)ning tarkib topishi va shakllana borishiga doir tadqiqotlar natijalariga tayanib, amalga oshirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining **“Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo‘llash tushunchasi, tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida **“intizomiy jazo”**, **“intizomiy ta’sir chorasi”**, **“intizomiy huquqbuzarlik”** tushunchalari tahlil qilingan hamda o‘zaro mutanosib va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo‘llash tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Dissertant intizomiy jazo chorasi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar uchun qo‘llanilishini hamda javobgarlikni ta’minlashga qaratilgan chora ekanligini, intizomiy ta’sir chorasi esa, kelajakda sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlarning oldini oluvchi, tarbiyaviy-profilaktik vosita ekanligini asoslab bergan. Muallif fikricha, ular qo‘llanilish jihatidan ham bir-biridan farq qiladi: 1) intizomiy jazo aniq huquqbuzarlik holatidan keyin qo‘llaniladi, shaxsiy va jazolovchi xususiyatga ega bo‘ladi, qonunchilik va me‘yoriy hujjatlar asosida belgilanadi; 2) intizomiy ta’sir chorasi esa, intizom buzilishining oldini olishga qaratiladi, jamoaviy va rag‘batlantiruvchi xususiyatga ega, tashkiliy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Dissertatsiyada M. Armstrong, P. Druker, B. Ismoilov A.A. Karimov, R.K. Merton, R. Olimjonov, A.A. Rasulev, Sh. Sodiqov kabi milliy va xorijiy olimlarning qarashlariga tayangan holda **“ichki ishlar organi xodimining xizmat intizomi”** tushunchasiga hamda A. Bratus, S.E. Channov, A.V. Dubrovin, K.N. Gusov, C.B. Kalinin, F.F. Krensler, V.F. Lomakina, A.B. Nikiforov, L.A. Sirovatskoy, V.N. Tolkinov, V.V. Veremenko va N.Y. Xamaneva kabi xorijiy olimlarning fikrlari asosida, **“ichki ishlar organi xodimining intizomiy huquqbuzarligi”** tushunchalariga nisbatan mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan.

Dissertantning fikricha, ichki ishlar organlari xodimlarining intizomiy huquqbuzarligi tushunchasining aniq yuridik tarifi yo‘qligi, xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish mezonlarining normativ-huquqiy jihatdan belgilab berilmaganligi, javobgarlikka tortishning protsessual qoidalarda kolliziya va

huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi amaliyotda bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, ishda intizomiy jazo choralari qo'llashning nazariy asoslarini takomillashtirish zarurati ochib berilgan.

Dissertatsiyada ichki ishlar organlari xodimlariga qo'llaniladigan intizomiy jazolar hamda nojo'ya xatti-harakatlar yuridik tahlil etilib, xodimlarga beriladigan intizomiy jazolarning sodir etgan xatti-harakatlariga mos ravishda tayinlanishi lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llanilishining bugungi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash va ijrosini ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi **“Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llashning huquqiy asoslari tahlili”** deb nomlangan bo'lib, unda intizomiy jazo choralari qo'llash va ijrosini ta'minlash jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish asosida mavjud kolliziya va huquqiy bo'shliqlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Dissertant amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonun hamda bir qator qonunosti hujjatlar asosida mazkur masalani yoritib bergan.

Tadqiqotchining fikricha, ichki ishlar organlari xodimlariga qo'llaniladigan intizomiy jazolar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan *Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi* bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, mehnat qonunchiligiga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlar ham ushbu talablarning huquqiy jihatdan to'g'ri qo'llanilishini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Dissertant so'nggi yillarda ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo'llanilayotgan intizomiy jazo choralari ortib borayotganligini, bu esa tizimda nojo'ya xatti-harakatlar sodir etish ko'rsatkichlari ortib borayotganligi bilan izohlanishini qayd etib o'tgan. Xususan, raqamlarga ko'ra 2023-yilda ichki ishlar organlari xodimlarining o'rtacha 15,2 foizi, 2024-yilda esa, 14,2 foizi intizomiy jazoga tortilgan. Bu esa, ushbu faoliyatni huquqiy ta'minlashga ehtiyoj tobora ortib borayotganligini hamda ushbu sohadagi muammolarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

O'rganishlar asossiz va noqonuniy intizomiy jazo tayinlash holatlari ham mavjudligini tasdiqlaydi. Jumladan, 2023–2024 yillarda ushbu asos bilan yuqori organlar tomonidan bekor qilingan jazolarning barchasi (jami qo'llanilgan intizomiy jazolarning tegishlicha 61 va 89 foizi) Sirdaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi⁴.

Dissertant asossiz jazo tayinlash holatlarining sabablarini sotsiologik tadqiqotlar bilan asoslantirishga harakat qilgan. O'tkazilgan anketa so'rovi natijalariga ko'ra, intizomiy jazolarning bekor qilinishiga respondentlarning *56 foizi – rahbarlarning shaxsiy adovati sababli intizomiy jazolar qo'llanilishini;*

⁴ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti tomonidan taqdim etilgan 2024-yil 14-oktyabrdagi 2/2645-sonli ma'lumotnomasi

38 foizi – jazolarni qo‘llash jarayonida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklarni; 23 foizi – jazolar xodimlarning qilgan huquqbuzarligiga yarasha tayinlanayotganini sabab qilib ko‘rsatishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda “xizmat intizomini qo‘pol ravishda buzish” deganda nima tushunilishi lozimligi, uni aniqlash asoslari va shartlarining nazarda tutilmaganligi amaliyotda turli muammolarga sabab bo‘layotgani asoslab berilgan.

Shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi”da mavjud bo‘lgan quyidagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan:

1) Kodeksda kursant (tinglovchi)larga taalluqli bo‘lgan intizomiy jazolar tizimining alohida band sifatida belgilanmaganligi. Kodeksning 34-bandida xodimlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar belgilangan bo‘lsa-da, unda tanbeh, hayfsan, qattiq hayfsan kabi kursant (tinglovchi)larga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar ham qayd etilgan. Shu bilan birga, Kodeksning 35-bandida IIV ta‘lim muassasalari kursant (tinglovchi)lariga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy jazolar tizimi mustahkamlab qo‘yilgan. Kursant (tinglovchi)larga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy jazolarning aralash holda ifodalanishi huquq normasini qo‘llashda chalkashliklarga sabab bo‘ladi;

2) og‘zaki tarzda berilgan intizomiy jazolarning qancha muddat davomida amal qilishi lozimligi huquqiy mustahkamlanmagan. Mazkur holat ushbu shakldagi jazolarning huquqiy oqibatlari ham yozma shakldagilari bilan bir xil bo‘lib qolishiga olib kelmoqda;

3) intizomiy jazo choralari qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar doirasining aniq belgilanmaganligi. Jumladan, xodimning xizmat safarida, favqulodda holat yoki harbiy holat sharoitlarida, qayta tayyorlash yoki malaka oshirishda bo‘lgan vaqtlarida intizomiy jazoning qo‘llanilishi, xizmat tekshiruvni xulosasi bilan xodimni tanishtirish, tayinlangan jazoni e‘lon qilish bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmoqda;

4) ilgari qo‘llanilgan intizomiy jazoni rag‘batlantirish tariqasida muddatidan oldin bekor qilishning eng kam muddati belgilanmaganligi. Ushbu holat tizimda subyektivizm, nepotizm (tanish-bilishchilik) va korrupsiyaviy omillarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, dissertatsiyada maxsus unvonini bir pog‘ona pasaytirish intizomiy jazosi faqat ofitserlar tarkibi xodimlari uchun qo‘llanilayotgani tanqid qilinib, ushbu jazo turini nojo‘ya xatti-harakat sodir etgan serjantlar tarkibi xodimlariga ham tatbiq etish lozimligi asoslantirilgan. Bunda, Kodeksning 44-bandiga serjantlar tarkibi xodimlarining unvonlarini “kichik serjant” unvonigacha pasaytirish mumkinligini nazarda tutuvchi qo‘shimchalarni kiritish taklif etilgan.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksida (151-bandi) “Xizmatdan bo‘shashga qaror qilgan xodim bo‘shashni rejalashtirgan kundan kamida **ikki oy avval** ichki ishlar organining boshlig‘iga bildirgi bilan murojaat etadi” degan qoida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu muddatga amal qilinmasdan, ogohlantirish muddatidan oldin xodimlarni

xizmatdan bo'shatish holatlari kuzatilmoqda. Natijada, ushbu holatlarning sudlar tomonidan noqonuniy ishdan bo'shatish deb topilib, xodimlarni xizmatga tiklash haqidagi hal qiluv qarorlari chiqarilmoqda. Dissertantning fikricha, ushbu holatda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 160-moddasida nazarda tutilgan **o'n to'rt kalendar kunlik** ogohlantirish muddatining kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu muddatning kiritilishi noqonuniy xizmatdan bo'shatish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning *“Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo'llash borasidagi muammolar va ularning yechimlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida intizomiy jazo choralari qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan sodir etilayotgan, intizomiy jazo tayinlashga asos bo'layotgan xizmat intizomini buzish holatlarining aksariyati quyidagi nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etish bilan bog'liq hisoblanadi: xizmatga belgilangan vaqtda yoki sababsiz kelmaslik; xizmat hududiga bormaslik va rahbar tomonidan tayinlangan yig'ilishga yetib kelmaslik; xizmat vaqtida xushyorlikni yo'qotib uxlab qolish, xizmat hududini nazoratsiz qoldirish, sababsiz xizmat joyini tashlab ketish; xizmat guvohnomasini yo'qotish, xizmat kiyimini kiyish tartibi va shaxsiy xavfsizlik qoidalarini buzish; qimor va tavakkalchilikga asoslangan o'yinlar o'ynash; xizmat vaqtida, xizmat kiyimida spirtli ichimlik iste'mol qilish; fuqarolar, mahkumlar bilan qo'pol, nosamimiy munosabatda bo'lish, ijtimoiy tarmoqlarda e'tirozli videolavhalar tarqalishiga sababchi bo'lish; axloq-odob qoidalarini buzish, axloqsiz harakatlar sodir etish; rahbarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, berilgan topshiriqni, ko'rsatmani vaqtida bajarmaslik va hodisalar to'g'risida axborot bermaslik; jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini buzish; o'ziga ma'lum bo'lgan axborot va yaqin qarindoshlari sudlanganligi haqida rahbarlarga o'z vaqtida ma'lumot bermaslik va h.k.

Dissertant ushbu nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun ularning og'ir-yengilligiga qarab intizomiy jazo tayinlashning aniq mezonlari mavjud emasligini qayd etib, yakuniy qaror xizmat tekshiruvi xulosasini imzolaydigan Intizomiy kengash raisi yoki intizomiy jazo berish vakolatiga ega bo'lgan rahbarning “kayfiyati”ga bog'liq bo'lib qolayotganligini va bunda subyektivizmga yo'l qo'yilayotganligini asoslab bergan.

Shuningdek, tayinlangan intizomiy jazolarni rag'batlantirish tariqasida muddatidan oldin yechishda ham yagona yondashuv mavjud emas. Bunga sabab Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksida intizomiy jazolarni muddatidan oldin bekor qilishning huquqiy mexanizmi nazarda tutilmaganligidir. Natijada amaliyotda, jazolar rahbarlar tomonidan ixtiyoriy ravishda turli muddatlarda bekor qilinishi kuzatilmoqda. Masalan, 2023–2024 yillar davomida qo'llanilgan jami intizomiy jazolarning 31,3 foizi – 11 oyda, 26,6 foizi – 9 oyda, 15,4 foizi – 6 oyda, 8,4 foizi – 3 oyda, 3,6 foizi – 2 oyda, 2,9 foizi – 1 oyda bekor qilingan⁵. Bu esa, tanish-bilishchilik va turli suiiste'molchiliklarga sabab bo'lmoqda. Dissertant fikricha, intizomiy jazoni

⁵ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti tomonidan taqdim etilgan 2024-yil 14-oktyabrdagi 2/2645-sonli ma'lumotnomasi

muddatidan oldin rag‘batlantirish tariqasida bekor qilish kamida uch oylik muddat o‘tgandan so‘ng amalga oshirilishi lozim. Mazkur muddat xodimning intizomiy holatni anglab yetishi va tuzatishi uchun yetarli hisoblanadi.

Muallif ushbu muammoni sotsiologik so‘rov natijalari bilan ham asoslab bergan. Jumladan, anketa so‘rovida *“Xodimga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin bekor qilishning eng kam muddatini 3 oy etib belgilash haqidagi taklifga munosabatingiz?”* degan savolga respondentlarning 85 foizi – ushbu taklifni ma‘qullashini, ushbu mexanizm muddatidan oldin intizomiy jazoni bekor qilishda tanish-bilishchilikning oldini olishga xizmat qilishini ma‘lum qilgan.

Gauptvaxtada hibsdan ushlab turish – intizomiy jazoning qat‘iy chorasi sifatida ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatish uchun asos bo‘ladigan nojo‘ya xatti-harakatni sodir etgan xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi. Muallifning fikricha, ushbu jazo turini qo‘llash asoslari Konstitutsiya normalariga zid ravishda belgilangan. Xususan, Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksiga muvofiq ushbu jazo turi intizomiy jazo berish vakolatiga ega bo‘lgan ichki ishlar organlarining rahbarlari tomonidan tayinlanadi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 27-moddasi talablariga ko‘ra, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga muvofiq yo‘l qo‘yilishi mumkin. Dissertant ushbu talabni Asosiy Qonunga muvofiqlashtirish zaruratini, jumladan, “gauptvaxtada hibsdan ushlab turish” tarzidagi intizomiy jazo chorasini intizomiy jazolar ro‘yxatidan chiqarish lozimligini isbotlab bergan. Shuningdek, ushbu jazo turi xalqaro huquq normalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emasligi asoslantirilgan (*M.T. Ahmedova, I. Ismoilov, V.G. Karimov, Z.U. Musratova, N.A. Nug‘monov, S.M. Selimanova*).

Bugungi kunda ustidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan xodimlarning aksariyat hollarda sud hukmi chiqmasdan turib ichki ishlar organlaridan bo‘shatish holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek, xizmat tekshiruvini o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar hamda ayrim rahbarlar qaror qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasi (Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish) talablariga rioya qilmayapti. Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga ko‘ra, unda nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs jabrlanuvchi yarashgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi. Qolaversa, Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 149-bandiga ko‘ra, xodimga nisbatan tergov harakatlari olib borilayotgan, sudga ko‘rilayotgan jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinmagan yoki sud hukmi qonuniy kuchga kirmagan bo‘lsa, u xizmatdan bo‘shatilishi mumkin emas.

Dissertatsiyada mazkur muammo mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish asosida ham asoslab berilgan. Xususan, anketa so‘rovida *“Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan moddalar bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa-da, xodimning jabrlanuvchi bilan yarashib, javobgarlikdan ozod etilgan holda ham ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatilganligiga duch kelganmisiz?”* degan savolga ishtirok etganlarning 52 foizi bunday amaliyotga guvoh bo‘lganligini qayd etib o‘tgan. Shunga asosan, Nizomning 43-bandida ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatish tarzidagi intizomiy jazoni qo‘llashda Jinoyat kodeksining 66¹-moddasi talablari inobatga olinishi zarurligini belgilash maqsadga muvofiq.

Ishda “lavoziy maoshining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima” jazosining huquqiy maqomini aniqlashtirishga qaratilgan izlanishlar olib borilgan. Mazkur jazo turi intizomiy jazolar iyerarxiyasida to‘rtinchi (tanbeh, hayfsan, qattiq hayfsandan keyin) o‘rinda keltirilgan bo‘lib, nisbatan og‘irroq jazo sifatida e‘tirof etiladi. Tahlillarning ko‘rsatishicha, bu jazo turi bir martalik oqibatga ega bo‘lib, ijro etilishi bilan tugallanadi. Biroq Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksining 66-bandiga muvofiq huquqiy oqibati to‘qqiz oy davom etadi. Ushbu jazoga tortilgan xodim ushbu davr mobaynida yuqori lavozimga tayinlanmaydi, navbatdagi unvonni ololmaydi, rag‘batlantirishga tavsiya etilmaydi. Bu esa, uning ishchanlik kayfiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Dissertant ushbu jazoni jinoyat sodir etganlik uchun tayinlanadigan jarima jazosi bilan taqqoslagan holda, bir martalik oqibatga ega yengil jazo sifatida belgilash lozim, degan xulosaga kelgan. Ya‘ni, Jinoyat kodeksining 78-moddasiga binoan, jarima jazosi tayinlangan shaxsning sudlanganlik holati jarima jazosi ijro etilgan kundan e‘tiboran 1 yil o‘tgach tugallangan hisoblanadi. Shu bois, lavoziy maoshining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima jazosining huquqiy oqibati darhol bekor bo‘lishini qonunchilikda mustahkamlash bo‘yicha taklifni ilgari surgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ichki ishlar organlarida intizomiy jazo choralari qo‘llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari**” deb nomlangan bo‘lib, unda ayrim xorijiy mamlakatlarda politsiya xodimlariga intizomiy jazolarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari va bu boradagi ilg‘or tajribalar, shuningdek ularni milliy qonunchilikka tatbiq etish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlariga intizomiy jazo choralari qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tadqiq etilgan.

Mazkur bobning “*Ayrim xorijiy davlatlar ichki ishlar (politsiya) organlarida intizomiy jazo choralarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlili*” deb nomlangan birinchi paragrafida politsiya xizmati faoliyatini tartibga soluvchi ilg‘or qonunchilik normalari va ularni qo‘llash amaliyoti tahlil qilingan. Jumladan, ishda Germaniya, Fransiya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Qatar, Qozog‘iston, Qirg‘izistonda mavjud ilg‘or tajribalar tadqiq etilib, quyidagi ilg‘or amaliyot natijalarini milliy tizimga tatbiq etish zarurati asoslab berilgan:

Qatar davlatida har qanday sababga ko‘ra xizmatni tark etgan (bo‘shatilgan) politsiya xodimi, agar xizmat tekshiruvi uning xizmat muddati tugaguniga qadar boshlangan bo‘lsa, unga nisbatan intizomiy kengashning faoliyatini davom ettirishga ruxsat beriladi. Shuningdek, davlat g‘aznasidan ma‘lum miqdordagi summani o‘zlashtirish bilan bog‘liq moliyaviy huquqbuzarliklar sodir etilgan bo‘lib, mazkur holat xizmatdan bo‘shatilgandan keyin yoki ushbu holat sodir etilgandan keyin besh yil ichida aniqlansa, unga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo‘llanilishi mumkin.

